

2

Vatan yagonadir,
Vatan Gittadir!



2013-yil 8-aprel
N:14 (66919)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

SOG'-OMON, NAVQIRON BO'LSIN FARZANDLAR

Bolalar sporti

Mamlakatimizda bolalar sportiga qaratilayotgan yuksak e'tibor farzandlarimizni ommaviy tarzda sportga jalb qilish, yoshlarimiz orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish imkonini berdi. Bunday g'amxo'rliklarga javoban yosh va umidli sportchi o'g'il-qizlarimiz Respublika va xalqaro musobaqalarda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib, qalblarimizga cheksiz g'urur baxsh etishmoqda. Quyida ana shunday iqtidorli tengdoshlaringiz bilan tanishasiz.



«YOSHLIK»NING BO'LAJAK CEMPIONLARI

Buxoro shahridagi «Yoshlik» sport majmuasi yoshlarning sevimli maskaniga aylangan.

Mazkur zamonaviy sport inshootida 600 nafardan ziyod o'g'il-qiz sportning badiiy gimnastika, voleybol va velosport turlari bilan muntazam shug'ullanmoqda. Bu yerdagi barcha qulayliklarga ega mashg'ulot zallari, kiyinish va yuvinish xonalari shinam, orasta. Tibbiyot xonasi ham zamonaviy uslubda jihozlangan.

O'ttizdan ziyod murabbiydan saboq olayotgan yosh sportchilarning yuz nafarga yaqinini qizlar tashkil etadi. Ularning asosiy qismi nafis sport turi – badiiy gimnastika bo'yicha o'z mahoratini oshirmoqda.

BADIIY GIMNASTIKACHILAR BAHSI

Namangan shahridagi «Barkamol avlod» sport majmuasida badiiy gimnastika bo'yicha yoshlar o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.

Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan kelgan 1996-2002-yillarda tug'ilgan 128 nafar qiz nafis sport turi bo'yicha o'z mahoratini sinovdan o'tkazdi.

Musobaqa natijalariga ko'ra, umumjamo'a hisobida Toshkent shahri jamoasi birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin samarqandlik, uchinchi o'rin esa buxorolik badiiy gimnastikachilarga nasib etdi.



To'qqiz yoshli
Kamronbekning
orzulari bir olam...
7-bet

Shaharlararo o'lgan surati va kollaji

Ko'ring, havas qiling, Siz ham intiling!

Hayotligidayoq Sohibqiron deya ulug'langan, samodagi yulduzlar bir buriga kirgan damlarda dunyoga kelgan jahongir bobomiz Amir Temur ibn Farag'ay (1336–1405-yillar) olgan dunyo buyuklarining benazir silsilasiga haqli ravishda mansub bo'lgan jahonshumul siymolardan biridir. Faassufki, o'z yurtini, ona xalqini bosqinchilardan himoya qilishdek sharafti ishga ulkan hissa qo'shgan, Markaziy Osiyo



xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy laraqqiyotini yuksak pog'onaga ko'largan, Furkistonni – Movarounnahrni birlashtirgan, mamlakat hayotida yangi bir davrni boshlab bergan buyuk sarkarda, yetuk davlat arbobi, ilm-u fan va madaniyatning saxovatpesha homiysi bo'lgan bobomizning muqaddas nomlari qoralanib, tarixi usoz yillar mobaynida noto'g'ri talqin qilinib keldi.

MUHIM SANALAR

1994-yil 29-dekabr
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida» qaror qabul qildi.

1995-yil 25-dekabr
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «1996-yilni «Amir Temur yili» deb e'lon qilish to'g'risida» Farmon chiqardi.

1996-yil 14-mart
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Xalqaro Amir Temur jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida» qaror qabul qildi.

1996-yil 26-aprel
«Amir Temur ordenini ta'sis etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

1996-yil 28-avgust
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Samarqand va Shahrisabz shahrini «Amir Temur ordeni bilan mukofotlash to'g'risida» Farmon chiqardi.

ADOLATNING YORQIN YULDUZI



otashin nutqlarida: «Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak!» degan edilar g'urur bilan.

Temur va temuriylar davrining mohiyatini chuqur anglab yetishda u haqda yozilgan, yozilayotgan asarlarning ahamiyati g'oyat muhimdir. Sohibqironning shaxsiyati

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy: «Amir Temur obodonchilikka yaraydigan biror qarich yerning ham zoye bo'lishini ravo ko'rmasdi», deb yozgan edi o'z xotiralarida. Bobomizning: «Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'n ta ko'chat ektirdim», degan so'zlari fikrimizning dalili bo'la oladi.

«...Shu narsa aniqki, musulmon me'morchiligi tarixidagi eng yaxshi davrlardan biri Temur va uning avlodlari nomi bilan bog'liqdir», deb yozgan edi akademik V.V. Bartold Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatiga yuqori baho berib.

Sohibqiron qadami yetgan joylarda barpo etilgan tarixiy obidalar bugungi kunda ham xalqlarni bir-biriga bog'lab turuvchi vosita bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Birgina Ahmad Yassaviy maqbarasini olaylik, uning qurilganiga olti asrdan oshgan bo'lsa-da, bu tabarruk maskan to hanuz dunyoning turli burchaklaridan kelgan minglab ziyoratchilarni ma'naviy jihatdan birlashtirib, eziglikka chorlab kelmoqda.

Bugungi kunda dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatib, bobomizning tarixiga, shaxsiga, avlodlari faoliyatiga qayta-qayta murojaat qilishmoqda.

Tarixiy ildizlari asrlar qaridan suv ichgan bunyodkorlik, me'morchilik, obodonchilik kabi qadim qadriyatlarimiz bugungi kunda ham qadr topib, e'zozlanib, sayqallanib kelinyapti. Bobolarimiz ezgumallarning mantiqiy davomi sifatida mazkur yilimizning «Obod turmush yili» deya nomlanishida ham purma'no hikmat bor.

Aminimizki, buyuk bobokalonimizning yorqin yulduzi bizning ham, kelajak avlodlarning ham hayot yo'llarini mudom yoritib, nurafshon etaveradi.

BIZNING FAXRIMIZ

Amir Temur bobomizning men tug'ilib o'sgan shaharda yashab o'tganliklari qalbimda faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Ular qurdirgan Oqsaroyi ko'p bora ziyorat qilganman. Shuncha asrlar o'tsa hamki, ko'rkamligi, mahobatini yo'qotmagan. Bejiz uning peshtog'ida Amir Temurning: «Bizning qudratimizga shubha qilganlar biz qurgan imoratlarga boqsunlar», degan so'zlari yozilmagan ekan-da! Manbalarda yozilishicha, ushbu saroyi bobomiz muvaffaqiyatli yakunlangan yurishlaridan birining sharofati bilan bunyod ettirgan ekanlar.

Bugungi kunda ko'plab ko'chalar, muzey va xiyobonlar bobomiz nomi bilan atalib, buyuk sarkardaga ehtirom ko'rsatilmoqda.

Mahbuba QO'LDOSHEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumani

Istiqlol sharofati bilan buyuk bobokalonimiz haqidagi bor haqiqatni angladik, uning pok nomi xalqimiz qalbiga qaytdi, tabarruk siymosi Vatanimiz bag'rida qad rostladi. Temur va temuriylar davriga alohida e'tibor qaratildi.

1993-yilda poytaxtimiz markazidagi xiyobonda Sohibqiron Amir Temurga ulug'vor yodgorlik o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov yodgorlikning ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda buyuk ajdodimiz haqida faxr va iftixor bilan nutq so'zlab, jumladan shunday degan edilar:


«Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeini munosib o'ringa qo'yish imkonidan mahrum edi.

Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutilishga mahkum etildi. Maqsad, xalqimiz yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish; uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb qo'rida saqladi».

1996-yilda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyining barpo etilishi ham minnatdor avlodlarning buyuk ajdodiga ko'rsatgan yana bir hurmat va ehtiromi ramzi bo'ldi. Yurtboshimiz muzeyning ochilish marosimida so'zlagan

va davriga oid manbalarda, xususan, uning o'zi qog'ozga tushirgan «Tuzuklar»ida bobomiz va uning avlodlari bunyodkorlik, obodonchilik ishlariga alohida e'tibor qarotishganiga guvoh bo'lamiz. Ular barpo ettirgan masjidlar, madrasalar, saroylar, bozorlar, ko'priklar, yo'llar, kanallar va boshqa imorat-u inshootlarning son-sanog'i yo'q. Amir Temurning bevosita rahnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Go'ri Amir, Ahmad Yassaviy, Zangiota maqbaralari, Oqsaroy va Shohi Zindadagi me'moriy mo'jizalar, Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht, Bog'i Baland singari o'nlab go'zal saroy va bog'lar shular jumlasidandir. Bu obidalar hech shubhasiz, inson tafakkuri, aql-zakovatining buyuk timsollardir.

Shu jihatdan, Temur davri Markaziy Osiyo me'morchiligida katta o'rin egallaydi, u yangi uslubiy yo'nalishlarni boshlab beradi.





SALOMATLIK YO'LIDAGI HAMKORLIK

Yaqinda «O'zbekiston Madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi, Respublika «Ayollar kengashi» jamoat tashkiloti, «Operation smile» xalqaro bolalar tibbiyot xayriya tashkiloti hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamkorligida «Oilada salomatlik» aksiyasi bo'lib o'tdi.



Aksiya doirasida Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahridagi lab-tanglay, yuz-jag' sohasi nuqsoni bilan tug'ilgan va kuyish jarohatini olgan bolajonlarning 180 nafariga bepul jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

Ma'lumki, «Operation smile» xalqaro bolalar tibbiyot xayriya tashkiloti shifokorlari bugunga qadar qit'amizning Kambodja, Indoneziya, Birma singari 60 ga yaqin mamlakatlari kichikintoylarining sog'lom bo'lishlariga, chiroyli tabassum qilishlariga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Ular orasida malakali o'zbek shifokorlarining ham borligi bizni yanada quvontiradi.

— O'g'lim Shahriyor hozir olti yoshda. U kichikligida qattiq kuyib, jarohat olgan edi. Xorijlik hamda o'zbek shifokorlarining sa'y-harakatlari tufayli bolamning ko'rinishi asl holiga qaytdi. Aksiya tashkilotchilaridan hamda beg'araz yordam ko'rsatgan shifokorlardan behad minnatdorman, — deydi Naima Esonboyeva.

Shu tariqa ushbu xayrli aksiya tashkilotchilari ko'plab xonadonlarga xursandchilik ulashishyapti.

Ozoda TURSUNBOYEVA

SEVIMLI YOZUVCHINGA

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlari! Men gazetangizni katta qiziqish bilan o'qiyman. Tengdoshlarim ijodidan ilhomlanib, sevimli yozuvchim Xudoyberdi To'xtaboyevga xat yozdim. Maktubimni ardoqli adibimiz gazeta orqali o'qisalar, mamnun bo'lar edim.

Assalomu alaykum, Xudoyberdi bobo! Men sizning bir-biridan qiziqarli kitoblaringizni sevib mutolaa qilaman. «Tong yulduzi», «Sinfdo» kabi gazeta va jurnallar orqali sakson yillik tavallud ayyomingiz keng nishonlanganini, «Sariq devni minib» nomli asaringiz asosida film olinganini o'qib, nihoyatda xursand bo'ldim. Yangi nashrdan chiqqan «Peshonasiga televizor yopishgan bola» nomli asaringiz bolajonlarning qo'lidan qo'lga o'tib, sevib o'qilayotgani sizning eng yaxshi bolalar yozuvchisi ekanligingizni yana bir bor isbotlaydi.

Sizning asarlaringiz, shuningdek, ustozim Salima opa Umarovanning, ota-onamning saboqlari meni ham adabiyot olamiga yetakladi. Hozirda she'r, hikoya, badia, masal, qatra yozishni mashq qilyapman. Ijod namunalirim tuman, viloyat gazetalarida bosilib chiqdi. Tanlov va festivallarda qatnashib, faxrli o'rinlar sohibasi bo'ldim. Maqsadim, bolalar ijodkori bo'lish.



Millionlab bolajonlarning sevimli adibi bo'lgan Xudoyberdi bobojon, sog'-omon bo'ling. Yuz yoshga kiring, bizga atalgan kitoblaringiz soni ham yuzdan oshib ketsin, deya muxlislaringizdan biri:

Umida SATTOROVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi
45-maktab o'quvchisi


«ONAJONIM TABIAT» INSHOLAR VA RASMLAR TANLOVIGA

Mazkur tanlovimizga kelayotgan maktublarni soni kundan kunga ortib borayapti.

Bu esa o'g'il-qizlarimiz orasida tabiat shaydolari, uning haqiqiy himoyachilari ko'pligidan darak beradi. Quvonarlisi, o'quvchilar tanlovga yo'llagan insholarida, rasmlarida o'zlarini yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, shahar tabiati, ekologik muammolari hamda ularni bartaraf qilishga doir fikr-mulohazalarini ham bayon etishyapti.

Quyida e'tiboringizga tanlovga kelgan ijodiy ishlardan havola qilyapmiz.

Sizda ham tanlovda ishtirok etish niyati tug'ilgan bo'lsa, qo'lingizga qalam-qog'oz oling. Shoshiling, tanlovning yakunlanishiga oz fursat qoldi.



Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi Azizbek Fayziyev tanlovga yo'llagan rasmini «Ona tabiatni asraylik!» deb nomlabdi.

Qishlog'imizning uch tomoni paxtazor bo'lsa, bir tomoni poyonsiz cho'lga ulanib ketgan.



U yerda o'suvchi saksovl, to'zangul kabi chala butalar qishlog'imizni ko'chib yuruvchi qum barxanlaridan asraydi. Chunki cho'lida qattiq shamol tursa, u bo'ronga aylanib, qishlog'imizni qum bosib qolishi mumkin. Cho'lida zaharli hasharotlar, jonivorlar ko'p, shuningdek, quyon, echkiemar, tulki, bo'rilar yashaydi. Shunga qaramay, biz cho'lida chorva mollarimizni boqishni yaxshi ko'ramiz.

Maktubimiz qishlog'imizning qoq markazida joylashgan. Ilm maskanimizning kichkinagina bog'i bo'lib, u yerda erta bahordan to'kech kuzga qadar rang-barang gullar ochilib turadi. «Jonli burchagi»mizda qush va quyonlar boqamiz. Biz qishlog'imizning hamisha obod va ko'rkam bo'lishini xohlaymiz, ammo ba'zi qishloqdoshlarimiz cho'lidagi saksovullarni, jing'illarni kesib, o'tin qilishmoqda. Tabiat bizga cheksiz ne'matlarini hadya etgan. Ammo biz unga qanday yaxshilik qilyapmiz? Bu savolni hammamiz o'zimizga berib, mulohaza yurisak, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Sarvar YO'LCHIBOYEV,
Namangan viloyati, Mingbuloq tumanidagi
29-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi

REP ARVO WO'LMAYLIK

Yaqinda bir maktabda boshlang'ich sinf o'quvchisining mazasi qochib qolganini va sariq kasali tashxisi bilan shifoxonaga yotqizilganini eshitib qoldim. Eshitishimcha, bolakay ko'cha boshidagi axlatxona yaqinida o'ynagan ekan...

Endi u bilan muloqotda bo'lgan barcha bolalar, hatto ota-onalari ham tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart. Chunki kasallik boshqalarga ham yuqgan bo'lishi mumkin. Afsuski, ko'chamiz boshida yig'iladigan axlat uyumi haftalab qolib ketadi. Ammo mahallamiz mutasaddilari bu holatga panja orasidan qarashmoqda. Bugun bir bola kasallangan bo'lsa, ertaga o'nlab bolalar kasallik iskanjasiga tushishlari mumkin-ku. Nahotki kattalarni bu muammo o'ylantirmasa?


Suhrobjon TOSHEMIROV,
Andijon viloyati,
Ulug'nor tumanidagi
Mingbuloq kasb-hunar
kolleji o'quvchisi



ONALARGA EHTIROM

Biz onajon xalqimiz. Onalarimizni boshimizdagi tojimiz, oyimiz, oftobimiz deya ulug'laymiz. Dunyodagi barcha ezgu fazilatlarni ularga nisbat qilamiz. Mo'tabar, muqaddas, munis-u mushfiq, xokisor, jafokash deya ta'rif-u ta'vsiqlar beramiz.

Q a l b i a d a b i y o t g a , she'riyatga oshufta qalam ahli yo'qki, onalarga bag'ishlab she'r, ash'or, qasida bitmagan bo'lsa. Lekin, baribir ko'nglimiz to'lmaydi, qalbimiz taskin topmaydi. Bu tabarruk zotlarga munosib qiyos izlab tolmaymiz.



Zero, onalar shunchalar buyuk, siymosi shunchalar mukammal, atvori shunchalar mufassalki, ta'rifini so'zlab, ado qilmoq dushvor.

Dunyoning bor zakovati-yu mehr-muhabbati shu jussaga jo aylagandek, go'yo...

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida «O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etilgan «Onajon» nomli she'riy to'plam ayol, ona zotiga atalgan nazmiy guldasta bo'ldi. She'riyat mulking sultoni Mir Alisher Navoiy bobomizdan tortib, bu sirli olamga atak-chechak qilib kirib kelayotgan yosh qalamkashlarning o'tli misralaridan jamlangan mazkur to'plam o'quvchiga, ayniqsa, yosh kitobxonlarga bir olam ma'naviy zavq ulashishi shubhasiz.

DILAFRUZ

QIMMATGA TUSHGAN SHO'XLIK

Samandarning sinfdoshi Akmalga bugun rostmana havasi keldi: onasi unga qizil rangda nur taratuvchi lazer chiroqcha olib beribdi. Butun sinfga kun bo'yi ko'z-ko'z qildi. Nuri biram o'tkir-ki, ayniqsa, kechki payt uzoq-uzoqlarga yetarkan...


Maktabdan kelib oq Samandar ham onasiga, lazerli chiroqcha olib bering, deya xarxasha qila boshladi. Qistab qo'ymaganidan keyin unga ham aytgan matohini olib berishdi. Samandarning quvonganini bir ko'rsangiz edi... Huda-behudaga chiroqchani yoqib-o'chirib charchamaydi, deng. Endi zo'r bo'ladi. Ro'parasidagi uying sakkizinchi qavatida yashaydigan sinfdoshi Abrorlarning uyiga kechqurun nurni yo'naltiradi. O'trog'i ham hayron bo'lsa kerak...

Shu kuni Samandarning otasi allamahalda kirib keldi. Bu paytda u yotoqxonasidan turib Abrorlarning dera-

Bugungi kunda farzandlarimizga chuqur bilim berish, ularning mustaqil fikrini rivojlantirish, jonajon yurtimizning ravnaqi uchun iqtidorli, salohiyatli yoshlarni tarbiyalash barchamizning, xususan, biz ustoz va murabbiylarning oldimizda turgan muhim vazifalarimizdan biridir.

Prezidentimiz «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarlarida «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir», deya ta'kidlaydilar.

Davlatimizning jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalari kengayib borayotgan bir paytda yoshlarimizning dunyo xalqlari hayoti, madaniyati, urf-odatlari, tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga



TIL BILGAN - EL BILADI

axborot texnologiyalari, ko'rgazmali slaydlar, mavzuga oid rasmlar plakatlari, audio, video vositalari hamda tarqatma materiallari bilan dars olib borish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilmi va texnikasiga bag'ishlangan badiiy va multiplikatsion filmlar ingliz tilidagi subtitr yordamida o'quvchilarga namoyish etilyapti. E'tiborlisi, dars yakunida o'quvchilar tomosha qilgan filmlaridan olgan taassurotlarini ingliz tilida so'zlab beryaptilar.

O'quvchilarimizning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari shu darajada yuqoriki, buni ularning qo'shimcha darslar o'tishimizni, o'tilgan mavzular yuzasidan bahs-munozara klublarini tashkil etishimizni so'rab qilgan murojaatlaridan ham bilish mumkin.

Xalqimizda «Til bilgan – el biladi» degan naql bor. Bugungi kunda xorijiy tillarni mukammal o'rganayotgan yoshlarimiz yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib, Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan kadrlar bo'lib yetishishiga ishonamiz.

Aziza NODIROVA,
O'zDJTU qoshidagi 3-akademik
litseyning ingliz tili o'qituvchisi



Zuhra NISHONOVA olgan suratlar



(Voqeiy hikoya)

zasiga chiroqchasining o'tkir nurlarini yo'naltirib, sho'xlik qilardi.

– Namuncha kech qoldingiz? – dedi onasi dadasiga peshvoz chiqib.

– Uyga erta qaytayotuvdim, – dedi dadasi horg'in ovozda, – katta yo'ldan mahallamiz tomon burilganimda, ko'zimga allaqanday nur tushib qamashtirib yubordi. Mashinani chetga olishga bazo'r ulgurdim. O'ng taraf g'ildiraklarining shinalari ariq chetidagi to'siqqa qattiq ishqalanib, yorilib ketdi. Kechki payt usta topish ham qiyin ekan.

– Ko'zingizni qamashtirgan nima ekan? – so'radi onasi xavotir bilan.

– Hozir kichkina lazerli cho'ntak chiroqlari chiqqan. Xorijda bebosh bolalar samolyotni qo'nishga hozirlayotgan uchuvchining ko'ziga ana shunday chiroqda nur yo'naltirib, halokat sodir bo'lishiga sababchi bo'lishgani haqida eshitgandim. O'yinqaroq bolalardan birontasi ko'zimga o'shani to'g'rilagandir-da.

Samandar bu gaplarni eshitib, qo'rqib ketdi. Qo'lidagi chiroqchani o'chirib, shkafning tepasiga qo'ydi. Ertalab nonushta mahali xuddi aybdor odamday otasining yuziga qarolmadi. Maktabga ketish oldidan onasi chiqindi solingan yelim xaltani o'g'liga

uzatdi:

– Yo'lda chiqindi qutiga tashlab o't.

– Xo'p, oyijon, – dedi Samandar onasiga va: – Bir daqiqa to'xtab turing, – deya xonasiga kirib ketdi. Necha kun intiq bo'lib erishgan chiroqchasini olib chiqib, oyog'i ostiga tashlab majaqladi. Keyin esa onasining qo'lidagi yelim xaltaga tashlarkan, yengil nafas oldi.

– Shunday bo'lgani yaxshi. Onasi eshikni ocharkan, mehr bilan o'g'lining boshini silab qo'ydi.

Yusuf ABDULLAYEV

DIL KALITI

Ayni kunlarda sizning eng sevimli mashg'ulotlaringizdan biri chet tillarni o'rganish bo'lsa kerak-a? So'z boyligingiz oshib, grammatik bilimlaringiz ham kengayib borayotganini esa gazetamizga yo'llayotgan maktublaringiz orqali bilib olyapmiz. Shuningdek, bilimlar sinovidagi faol ishtirokingiz ham bizni mamnun etyapti. Respublikamiz maktablarining 5-8-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan an'anaviy bilimlar bellashuvining Qashqadaryo viloyati bosqichida Yakkabog' tumanidagi 14-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati o'quvchisi Setora Abduqodirovaning ingliz tili fanidan eng yuqori

ball to'plagan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida bo'lib o'tgan fan olimpiadasida esa Yunusobod akademik litseyi o'quvchisi Shirinxon Toshxo'jayevaning g'olib bo'lgani quvonarli holdir.

Shu sabab bu galgi sahifamizdan ustozlaringiz bilan bir qatorda tengdoshlaringiz yo'llagan test savollari-yu qiziqarli topshiriqlar ham o'rin olgan. Ularni nashrga tayyorlashda esa poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 13-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi Nigora o'pa Ikromova ko'maklashdilar.

FUNNY TEST

QUVNOQ TEST

Men sevimli gazetamda tashkil etilgan ushbu sahifadagi topshiriqlarni yechdim. Ingliz tilini o'rganishga juda qiziqqanim bois, o'zim ham kichik testlar tuzishga harakat qildim.

- Anvar ...two ...
a) have got/cats b) has got/cats c) like/cats
- I ... interesting book.
a) see b) look c) read

Ruzana MASHARIPOVA,
Navoiy viloyati, Uchquduq shahri

PREPOSITIONS (Predloglar)

Ingliz tilida predloglar so'zlar oldida ishlatiladi. Predloglar o'zbek tilida kelishik qo'shimchalariga mos keladi.

- | | |
|---|---|
| In - ichida - The book is in the bag. | Into - ichiga - Put the pencil into the bag. |
| On - ustida - The picture is on the wall. | Under - tagida - The ball is under the chair. |
| At - yonida - Olim is at the blackboard. | Near - yaqinida - There are trees near the river. |
| With - bilan - I see a girl with a dall. | |

Fill in with prepositions

- There is a TV set ... the table.
- There is a picture ... the wall.
- There are two cats ... the tree.
- There is a man ... the window.
- There are two chairs ... the table.



Prepositions of Time. Payt predloglari.

- | | |
|---|-----------------------------|
| In | At |
| In the morning - ertalab | At 8 o'clock - soat 8 da |
| In the afternoon - peshinda | At noon - peshinda |
| In the evening - kechqurun | At night - kechqurun |
| In May, April (months) - may, aprelda (oylarda) | At midnight - yarim kechada |
| In summer (seasons) - yozda (fasllarda) | |
| In 1991 - (years) - yillarda | |
| On | |
| On Sunday - (days) - yakshanbada | |
| On Monday - dushanbada | |
| On October 4 th (dates) - 4-oktabrda | |
| On Saturday afternoon - shanba peshinda | |

Exercise I. Fill in: «In, On, At»

- 6 o'clock
- night
- Wednesday
- 1987
-November 20th
- winter
- the afternoon
- midnight
- Friday morning
- Christmas

Exercise II. Fill in: «In, On, At»

- Nargiza's birthday is May 5th
- We have breakfast.... the morning
- It is cold Winter
- They play tennis Saturdays
- She goes shopping Sunday morning.
- He goes two bed Midnight.

Risolat ISMOILOVA

GARDENER AND PEASANT

BOG'BON VA DEHQON

HARAKATLI O'YIN

O'quvchilar «Bog'bon» va «Dehqon» guruhlariga bo'linib, sabzavot va mevalarni saralashadi. Ya'ni, «Bog'bon» guruhidagilar olma, nok, uzum kabi mevalarning, «Dehqon»lar esa sabzi, kartoshka kabi sabzavotlar rasmlarini doskaga ilishadi.



Misol uchun (For example):

| | Gardener (fruits) | Peasant (vegetables) |
|--|----------------------|-------------------------|
| Cherry, apple, tomato, peach, potato, | _____ | red beet |
| carrot, plum, quince, cabbage, pepper, | _____ | _____ |
| grape, turnip, apricot, pumpkin, pear, | _____ | _____ |
| cucumber, fig, eggplant, pomegranate, | quince | _____ |
| onion, garlic, persimmon, strawberry, | _____ | _____ |
| red beet. | _____ | _____ |

Davron AKBAROV,
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi
26-maktabning ingliz tili o'qituvchisi

MAQOLNI TARJIMA QILING

Aziz o'quvchilar! Ingliz tilida berilgan quyidagi maqolni o'zbek tiliga tarjima qilsangiz, o'zingiz uchun foydali hikmatning mag'zini chaqasiz.



An apple a day,
Keeps the doctor away.

Shahlo NURMUHAMMEDOVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi
20-maktabning ingliz tili o'qituvchisi

FIND THE ODD WORDS

BIR TURKUMGA OID BO'LMAGAN SO'ZNI TOPING

- | | |
|----------------|---------------|
| 1) a) trousers | 2) a) kitchen |
| b) pen | b) library |
| c) album | c) cap |
| d) book | d) classroom |

Marjona DEHQONBOYEVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
12-maktabning 7-sinf o'quvchisi



DO YOU KNOW THE NAMES OF THESE THINGS IN THE PICTURE?

RASMDAGI NARSALARNING INGLIZCHA NOMINI BILASIZMI?



□ □ □ □



□ □ □ □

□ □ □ □




□ □ □ □



Umida NISHONOVA,
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi
2-akademik litsey o'quvchisi

ADABIYOT VA IFODALI O'QISH

Kitobingizni o'qidik



Xalqimizda «Bola boshidan» degan hikmatli ibora bor. Darhaqiqat, bir rivoyatda yozilishicha, yosh ota-ona farzandini to'g'riso'z, halol, o'qimishli, mehnatkash, vatanparvar qilib tarbiyalash maqsadida Ibn Sinoning oldiga maslahatga borishadi. Ibn Sino:

– Bolangiz necha yoshda? – deb so'raydi ulardan.

– Uch yoshda.

– Afsuski, tarbiyada uch yil kech qolibsizlar, – debdi donishmand.

Ko'rinadiki, bolalarga ta'lim-tarbiya berishni ular dunyoga kelishlari bilanqo boshlash kerak ekan.

Shuningdek, ota-ona, buvi va bobolar tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlari bolaning kelajak hayotiga poydevor bo'lishini aslo unutmashimiz lozim. Bu masalada xalq og'zaki ijodi, alla, qo'shiq, maqol, masal, tez aytish, topishmoq, ertaklar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar, tarbiyachilar, mahalla yetakchilari tomonidan ijro etiladigan boy va rang-barang xalq og'zaki ijodi, kichkintoylar hayotidan olib yozilgan she'r, qo'shiq, hikoyalar bugungi davr bolalar adabiyotining asosini tashkil etadi.

Bu orqali kichkintoylarda jonivorlarga, atrof-muhitga, do'st-o'rtoqlarga, mehnatga, Vatanga, ota-ona, aka-uka, opa-singilga nisbatan mehr uyg'onadi. Ularda yaxshilikka yaxshilik bilan javob berish har bir ishga mas'uliyat bilan qarashdek chin insoniy fazilatlar, his-tuyg'ular shakllana boradi.

Darhaqiqat, bolalarning o'yinlariga, chizgan rasmlariga diqqat bilan razm soling, gap-so'zlarini tinglang, shunda siz ularning olamni naqadar yorqin ranglarda ko'ra olishlarini payqaysiz.

Mana shu musaffo tuyg'ulari uchun ham insonlar bolalikni sevadilar va uni umr bo'yi mamnuniyat bilan xotirlab yuradilar. Betashvish bo'lgani uchungina emas, balki musaffo tuyg'ulari uchun sevadilar.

Mamasoli Jumaboyevning Respublika kasb-hunar kollejlarning «Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachisi» yo'nalishi o'quvchilari uchun yaratgan «Bolalar adabiyoti va ifodali o'qish» darsligi yuqoridagi jihatlarni ochib berishga qaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Darslik ham adabiyotshunoslik, ham pedagogik, ham psixologik tomondan maqsadga muvofiq yozilgan. Kitobda bugungi darsliklarga qo'yiladigan talablar to'la-to'kis o'z aksini topgan. Zero, «Bolalar adabiyoti va kitobxonligi», «Bolalar adabiyoti va folklor qismlari», «O'zbek bolalar adabiyoti» (obzor) darslikning asosini tashkil etadi. Bolalar adabiyotining «Maktabgacha tarbiya bolalar kitobxonligi», «Kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi», «O'rta va katta yosh bolalar kitobxonligi», «Ifodali o'qish» qismlarida bo'lajak tarbiyachilarga, kichkintoylarga badiiy asarlarni o'qib berishda, hikoya qilib berishda, o'qish uchun ularga badiiy kitoblar tavsiya etishda nimalarga e'tibor berishlari lozimligi haqida aniq fikrlar aytilgan. Asarlarning hajmi, ma'nosi, harflari, rasm va bo'yoqlari masalasida ham kitobxon bir to'xtamga kelishi uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan.

Darslikning yuragi – asosiy qismi «O'zbek bolalar adabiyoti» (obzor) bo'libdi. Muallif xalq og'zaki ijodi, sharq mutafakkirlarining bolalar adabiyotiga qo'shgan hissalari, XX asr o'zbek bolalar adabiyoti to'g'risida batafsil to'xtalib o'tgan. XXI asr o'zbek bolalar adabiyoti ham baholi qudrat sharhlab berilgan.

Xullas, darslikda adabiyot va hayot uyg'unligi o'z ifodasini topgan.

Abdurahmon AKBAR,
Respublikada xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

BAHOR YOMG'IRI

Yomg'ir budir baraka,
Mo'l-ko'llik nishonasi.
Farovonlik belgisi,
To'kinlik ostonasi.

Bahordagi yomg'irning
Shifobaxsh xislati bor.
Jonlantirish xislati,
Borliqqa quvvati bor.

Bahorning yomg'irida,
Barcha ozuqa jampir:
Azot, fosfor va kaliy –
Hammasi mujassamdir!

Gul-chechaklar barq urar,
Yomg'ir sharofatidan.
Zamin ham quvvat olar,
Ko'klam haroratidan.

Borliq yashnaydi, esib
Mayin bahor shamoli.
Ona yurt ochar jamol –
Suluv kelin misoli.

Agar g'allang mo'l bo'lsa,
Qo'shiq kelar tilingga.
Qut va baraka unar,
Ro'zg'oringga, elingga.

Eshniyoz BURHONOV,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani

TULKINING NONUSHTASI

Bizning tarjima

(Ertak)

Tulki o'rmondagi bir uychada yashardi. Ertalab ko'zini ochib, qorni ochganini sezdi va uyida yeyishga hech narsa qolmaganini ko'rib, yegulik izlab tashqariga chiqdi. Omadi chopib, Tovuqni uchratib qoldi. Uni ko'rgan Tovuq orqadiga qaramay qocha boshladi. Tulki esa ayyorlik bilan dedi:

– Hoy, Tovuq, nega mendan qochyapsan, men seni yemayman, sayr qilishga chiqqandim. Kel, sen ham men bilan birga sayr qil.

Uning gapiga laqqa ishongan Tovuq Tulki bilan o'rmon bo'ylab keta boshladi. Tulki uni ustiga chiqarib olib, yugura boshladi. Uning vajohatidan qo'rqib ketgan daraxtdagi Qushcha ham «pirr» etib osmonga ko'tarildi. Tulki Qushchani ko'rib to'xtadi va unga dedi:

– Hoy, Qushcha, nega mendan qochyapsan, seni yemayman. Men sayr qilishga chiqqanman. Ishonmasang, Tovuqdan so'ra.

Tovuq ham uning gaplarini tasdiqladi.

Tulki

Qushni ham o'zi bilan birga sayr qilishga taklif qildi va uni ham ustiga chiqarib oldi. Shu payt Tulkining yugurgilab kelayotganini ko'rgan Sichqon o'zini panaga oldi. Tulki to'xtab dedi:

– Hoy, Sichqon, qo'rqma, men seni yemayman. Biz sayr qilib yuribmiz. Kel, xohlasang, sen ham biz bilan sayr qil.

Sichqon bajon-u dil rozi bo'ldi. Tulki uni ham ustiga mingashtirib o'rmon ichiga yugurib ketdi. Ular uzoq sayr qilishdi. Holdan toyishgach, Tulki ularga dedi:

– Kelinglar, mening uyimda biroz dam olamiz. Sizlarni mehmon qilaman. Keyin barchangizni uy-uyingizga kuzatib qo'yaman.

Tulki ularni uyiga olib bordi. Ichkariga kirishgach, ayyor Tulki eshik-derazalarni mahkam yopdi va dedi:

– Hoy, Tovuq, buyoqqa kel, men seni yeyman.

Tovuq qo'rqib: – Nimaga meni yemoqchisan, axir sizlarni yemayman, deganding-ku, – dedi yig'lab.

– Sen hech ish qilmay, ertalabdan bog'da sang'ib yurganing uchun yeyman, – deya uni yeb qo'yibdi. Navbat qushchaga keldi. Qushcha ham yig'lamsirab yolvora ketdi. Tulki unga shunday dedi:

– Sen ham Tovuqqa o'xshab hech ish qilmay, shoxdan shoxga sakrab yurganing uchun yeyman, – dedi va uni ham bir yamlab yutdi. Keyin u Sichqonni chaqirdi. Lekin Sichqon yo'q edi. Shu payt eshik ochilib, ovchi kirib keldi va Tulkini otib tashladi. Buni kuzatib turgan Sichqon «Sening nafsing balodur, yonar o'tga solodur», deya kuldi.

Ingliz tilidan Zuhra ASQAROVA tarjimasi

8-aprel 2013

QALDIRG'OCHLAR PARVOZI

Qaldirg'ochlar charx urib,
Parvoz qilar samoda.
Nafis gullar ifori,
Taraladi havoda.

Chumchuqlarning chug'uri,
Tutib ketdi har yonni.
Bolalarning kulgisi,
Jaranglatdi osmonni.

Shuning uchun sevaman,
Bahoriy tarovatni.
His qilaman har onda,
Dilimda halovatni.

Gulnoza ABDUNABIYEVA,
Toshkent shahar,
Mirobod tumanidagi
328-maktabning
7-«B» sinf o'quvchisi



CHEMPIONLAR SAFI KENGAYDI

Yaqinda Oqsaroyda o'tkazilgan O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishida Prezidentimiz sportning suzish turi bilan shug'ullanayotgan qizlarimizning xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlariga alohida to'xtalib, bu boradagi xayrli ishlarni davom ettirish, farzandlarimizni ommaviy tarzda sportga jalb etish lozimligini yana bir bor ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda yoshlarimizning suv sportiga qiziqishi tobora ortib borayotir. Ular orasidan ko'plab yosh chempionlar yetishib chiqayotgani esa yanada quvonarli.

Kuni kecha poytaxtimizdagi Respublika ixtisoslashtirilgan suv sportini rivojlantirish markazida suv polosi bo'yicha o'smirlar va qizlar o'rtasida bo'lib o'tgan O'zbekiston ochiq chempionatida ham ko'p-

lab yosh iste'dodlar kashf qilindi.

O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan yurtimizda suv sporti turlarini jadal ommalashtirish, yosh sportchilarni aniqlash va rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan mazkur turnirda mamlakatimiz va qo'shni Qozog'iston Respublikasidan jami 14 jamoa g'oliblik uchun bahs olib bordi.

Keskin va murosasiz



o'tgan bahslar yakunida o'smirlar o'rtasida Markaziy harbiy sport klubi vakillari birinchi, Namangan viloyati 23-Bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasi ikkinchi, Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabi jamoasi faxrli uchinchi o'rinni qo'lga kiritishdi.

Respublika ixtisoslash-

irilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabining qizlar jamoasi murosasiz o'tgan final bahsida namanganlik tengqurlariga hech qanday imkoniyat qoldirmay, 14:7 hisobida g'alaba qozonishdi. Faxrli uchinchi o'rin esa qozog'istonlik yosh suv poloschilarga nasib etdi.

Sa'dullo TURSINOV

SABRNING TOTLI MEVASI



Dam olish kuni bo'lishiga qaramay, Kamronbek erta turdi. Yuz-qo'llarini yuvdi-da, sevimli mashg'uloti – jismoniy tarbiya bilan shug'ullana boshladi. Birozdan so'ng esa o'z darsxonasiga kirib, uy vazifalarini bajarishga tushdi. Onasi Barno opa dars qilishni ko'pam xohlamaydigan o'g'lining o'zgarib qolganidan, soatlab dars tayyorlayotganidan mamnun bo'lsa-da, buning sababini uning ustozidan bilgisi keldi. Ertasigayoq Yunusobod tumanidagi 288-maktabning 3-«A» sinf o'qituvchisi Feruza opa Ibragimova bilan suhbatlashdi.

qanday misol va masalalarni birinchi bo'lib yechayotgani meni quvontiryapti. Husnixatini inobatga olmaganda, nutqi ravonligi, xotirasi o'tkirli, fanlarni tezda o'zlashtirib olayotgani tahsinga sazovor. Buning asosiy sababini sport bilan do'stlashganida deb bilaman.

Hozirda ko'k belbog' sohibi bo'lgan Kamronbek Rizayev 2009-yildan beri sportning taekvando turi bilan shug'ullanadi. Bu davr mobaynida u Respublikamizda o'tkazilgan ko'plab

sport musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashib, ustozlari ishonchini oqlab kelmoqda. Jumladan, Janubiy Koreya va O'zbekiston hamkorligining 20 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan chempionatda Toshkent shahar Madaniyat va sport ishlari boshqarmasining III darajali Diplomi bilan taqdirlandi.

To'qqiz yoshli Kamronbekning orzulari bir olam. Zero, sog'lom odamning orzu-umidlari ham sog'lom bo'ladi. Maqsadga erishish uchun esa sabr-bardosh kerak. Avvaliga sabr achchiq tuyuladi, biroq mevasi totlidir.

Feruza SOYIBJON qizi

Moskva shahrida futbol bo'yicha qizlar o'rtasidagi «Chertanova kubogi» xalqaro turnirida Qarshining «Sevinch» jamoasi kumush medalni qo'lga kiritdi.



Musobaqada olti jamoa bir davrali tizimda o'zaro to'p surdi. 2000-yilda tug'ilgan qizlardan tashkil topgan «Sevinch» jamoasi dastlabki uchrashuvda Moskva shahri sharafini himoya qilgan «Chertanova-2000» futbolchilari bilan 1:1 hisobida durang o'ynadi.

«SEVINCH»NING G'ALABASI


Tajribali murabbiy Bahrom Norsafarovning shogirdlari «Chertanova-2001»ni 3:0, Moskva shahri terma jamoasini 2:0, Moskva viloyatining «Prialt» klubi vakillarini 13:0, Permning «Zvezda» jamoasini 10:0 hisobida yengdi.

Bahslar yakunida «Sevinch» va «Chertanova-2000» jamoalari o'n uchtadan ochko jamg'ardi. To'plar nisbatiga ko'ra mezbolar birinchi, «Sevinch» futbolchilari esa ikkinchi o'ringa loyiq topildi. «Sevinch» vakilasi Umida Burhonova musobaqaning «Eng yaxshi o'yinchisi» deb topildi.

Shoh MUHAMMAD

– Maktabimizda tashkil etilgan taekvando to'garagi rahbari Shahzoda Alisherova bilan kelishib oldik, – deya so'z boshladi ustozlari mamnuniyat bilan. – To'garak a'zosi odobli bo'lishi va albatta, fanlarni yaxshi o'zlashtirishi shart. Bordi-yu o'quvchi sababsiz darslarga kelmasa yoki past baho olsa, mashg'ulotlarga qo'yilmaydi. Shundan so'ng, Kamronbek do'stlari – sinfning eng a'lochi o'quvchilari – Fayzulla Mirzaqosimov hamda Akbarshoh Abdurahmonovdan qolishmasdan, a'lo o'qishga harakat qila boshladi. Ayniqsa, matematika darsida har

ISTE'DOD MEHNATDA TOBLANADI



Tinib-tinchimas, izlanuvchan tengdoshingiz Abduboriyni uchratishning o'zi bo'lmadi. Bir yozda maktabdagi saboqlari, bir yozda konsert dasturlari, mashg'ulotlar...

Nihoyat, uni navbatdagi konsert dasturida uchratdik. U a'zo bo'lgan «Universal art» guruhining Andijon viloyati bo'ylab safarga hozirlik ko'rayotganini eshitib, yosh musiqachi bilan shu yerning o'zida suhbatlashib oldik. Abduboriy o'zi haqida quyidagilarni so'zlab berdi:

— Ilk bor bog'cha yoshimda sahnaga chiqqanman. O'zbek Milliy akademik drama teatridagi sahna ko'rinishida Amir Temurning bolaligini ijro etganman. Mendagi qiziqishni payqagan onam yetti yoshimda R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik litseyiga yetaklab borganlar. Bugungi kunda litseyning 5-sinfida tahsil olib, ustozim Jahongir Ibragimovdan violonchelda kuy chalish sirlarini o'rganmoqdaman. Shuningdek, O'zbekiston Mudofaa vazirligining Madaniyat saroyi qoshidagi Ma'mur aka Yo'ldoshev rahbarlik qilayotgan «Universal art» bolalar aktyorlik guruhiga qatnashaman. Sportning futbol va suzish turlari bilan ham shug'ullanaman. Barchasiga ulgurishimning siri esa oddiy — qiziqishlarim va ota-onamning e'tibori...

Abduboriy Abdug'afforovning muvaffaqiyatlari havas qilsa arzigulik. U o'tgan yili Fransiyada bo'lib o'tgan A.Glazunov nomidagi VII xalqaro tanlovda Gran-pri sohibi bo'ldi.

Bundan-da yuksakroq marralarni ko'zlab, tinimsiz mehnat qilayotgan Abduboriyni musiqaning sirli olami o'ziga chorlayveradi.

Nigora ABDUNAZAROVA

Tengdoshingiz Farangiz Botirova poytaxtimizdagi ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan 178-umumta'lim maktabining 3-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Bu jajji qizaloqning orzulari bir olam.

MEN RAQQOSA BO'LAMAN



Farangizning onasi Feruzaxon opa san'atga, xususan, raqqosalikka havasmand bo'lganligi bois, qizining san'at yo'lini tanlashiga qarshilik qilmadi, aksincha, bu yo'lda unga yaqin ko'makchi bo'ldi. Ayni paytda Farangiz Shayxontohur tumanida joylashgan «Barkamol avlod» respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi qoshidagi «Ovoza» teatr studiyasiga a'zo bo'lgan 60 nafar tengdoshlari qatori raqs yo'nalishi bo'yicha tahsil olmoqda. U ustozlari Dilnavoz Ismatullayeva va Jahongir Tursunboyevdan sahna nutqi madaniyatini, Ruslan Ibragimovdan teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari tayyorlashning sir-asrorlarini mukammal egallashga kirishgan.


Farangizning ona tili, adabiyot fanlariga ham qiziqishi katta. Ustozi Muxtasar Eshmurodovdan ingliz tilidan puxta saboq o'lyapti. Uy yumushlarida onasining yaqin dastyori. Unda dizaynerlik qobiliyati ham bor.

— Farangiz, senga qaysi fasl yoqadi? — so'raymiz qizaloqdan.
— Menga bahor fasli, uning betakror, go'zal manzarasi juda yoqadi. Bu faslda chiroyli atlas ko'ylagimni kiyib, raqsga tushgim, hovli-ko'chalarga suv sepib, supurgim kelaveradi.


Aziz qizlarjon, sizni ham sarishta qizimiz Farangizga havasizing kelgandir? Unda, tabiat go'zalliklaridan bahra olib, husniga husn qo'shishga oshiqing.

Manzura UBAYDULLAYEVA


BO'SH QO'TIRMA, BO'SH QO'TIR!



1



2



3

1. Eniga: 1. Hosil. 2. Sahna. 3. Kalom. 4. Faraz. 5. Radif.

Bu so'zlarning aynan anogrammasini kataklarga joylashtirangiz, diagonalga o'g'il bolaning ismi kelib chiqadi. Shuningdek, u boshqarayotgan mashinaning nomi hamda mashinadagi o'rtoqlarining ismlari nima edi?

2. Boshqotirmani to'g'ri hal qilsangiz, bo'yiga o'g'il bolaning ismi va mashg'uloti, raqamlarda esa doston nomi paydo bo'ladi.

Eniga: 1. Qovun navi. 2. Aqli raso, miyali. 3. «Temir odam». 4. AQSHdagi shtat. 5. Bemorlarni davolovchi mutaxassis.

3. Zinama-zina. 1. Metro belgisi. 2. Musiqa notalaridan birining nomi. 3. Kimyoviy metall. 4. Arab davlatlaridan biri.

5. She'riy baytning bir satri.

Anvar MIRZAZODA,
Zangiota tumani

Pazanda qizga! SABZILI PISHIRIQ



Kerakli masalliqalar: 1 stakan mayda tishli qirg'ichdan o'tkazilgan sabzi, 100 gr. margarin, 2 dona tuxum, 1,5 stakan shakar va un, 2 osh qoshiq o'simlik yog'i, 1,5 choy qoshiq yumshatgich (razrixitel).

Tayyorlanishi: Tuxumning oqi sarig'idan ajratib, mikser yordamida ko'pirtiriladi. So'ng, shakar qo'shib, yana ko'pirtiriladi. Xona haroratida yumshatilgan margarin, sabzi va o'simlik yog'ini qo'shib, aralashtiriladi.

Un bilan yumshatgichni aralashtirib, sabzili masalliqa qo'shiladi. Pishiriq qolipi o'simlik yog'ida yog'lanib, tayyorlangan aralashma quyiladi.

180 daraja haroratida qizdirilgan gaz pechida 40 daqiqa davomida pishiriladi. Sovugach, ustiga qand upasi hamda maydalangan yong'oq bo'laklari bilan bezatiladi.

NARGIZA tayyorladi

8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jam'arasi.

Bosh muharrir
Feruz JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi
muharrir
Axtamul
KARIMOV
Rassom
Feruz
MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhih
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Tel.: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 86049
Buyurtma N: J 6833

8-aprel 2013

XANDILAR

— Oyi, anavi qismini qarang.
Boshida sochi yo'q ekan.
— Jim, sekin, eshitib qoladi...
— Jye, buni haali o'zi bilmaydimi?..

O'qituvchi:
— Salfqorlarning aytishicha, biz boshni
ko'p iste'mol qilishimiz kerak ekan.
O'quvchi:
— Ustoz, shunda biz ham suzadigan
bo'lamizmi?

Fayzulla ABDULLAYEV